

## **CHET TILI DARSLIK MAJMULARIDAN MAQSADLI FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARDA CHET TILINING NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI**

Assalomu aleykum, hurmatli video seminar qatnashchilari!

Hozir men sizlarga monitorda ko'rsatib o'tilgan muhim mavzulardan biri,

"Chet tili darslik majmularidan maqsadli foydalananish orqali o'quvchilarda chet tilining nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari" haqida biroz ma'lumot berib o'tmoqchiman.

Avvalambor, Nutq nima? U nima uchun muhim sanaladi? Nutq – fikr bayon qilish vositasi bo'lib, og'zaki va yozma shaklda ifodalanadi. Yozma nutq, og'zaki nutqdan farq qilib, yozma nutq harf va so'zlarning ma'lum qonuniyat asosida o'zaro birikuvi orqali, gaplarni Grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon etish orqalietib boradi. Yozma nutq murakkab jarayon bo'lib, u ko'p vaqt hamda mehnatni talab qiladi. Yozma nutq fikrlarimizni ixtiyoriy ifodalab berishning keng qulay vositasidir.

2 slayd

O'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularda til sezgirligini tarbiyalash biz o'qituvchilar oldida turgan asosiy vazifadir. Shu o'rinda nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy vazifalari sifatida yuqorida vazifalarni sanab o'tmoqchiman.

Nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy vazifalari:

- o'quvchilarga mustaqil va ijodiy fikrlashni o'rgatish;

Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish;

Egallangan nutq ko'nikmalarini rivojlantirish;

O'quvchilarining tilga bo'lgan sezgirligini tarbiyalash;

O'quvchilarining tilga bo'lgan qiziqishlarini oshirish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

3 slayd

Shu o'rinda Nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullarini e'tiboringizga havola etmoqchiman.

Ular quyidagicha:

**НУТҚ КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИ:**

- Har bir dars boshida kirish suhbatini o'tkazish;

- Rasmlar asosida muhokama qilish va ijodkorligini oshirish usuli;

- Kichik matn tuzish va matn ustida ishslash usuli;

- Eshitgan va ko'rgan narsalar asosisda guruhlarda suhbat o'tkazish;

- Teatrlashtirish usuli;

- Matn va rasm asosida hujumli savollar usulidir.

To'g'ri bu usullardan ko'pchilik ma'lumotga ega bo'lislari mumkin. Ammo, ularning naqadar samarali ekanligini o'z ish faoliyatlarida qo'llamaganlar ko'pchilik ekanligining guvohi bo'ldim. 2016 yil DTM tomonidan o'tkazilgan o'qituvchilarining bilimini darajalash 15% testidan o'tganidan keyin. O'qituvchi trener sifatida ham ish faoliyatini boshladim. Bu trenerlik ish jarayonida o'qituvchilar bilan dars jarayonida

uchraydigan kamchililar, ularni bartaraf etish usullari haqida ham bahslar olib boraman. O'qituvchi trenerlar bilan ham semenarlarda ishtirok etganimizda ularda ham ko'plab muammolar mavjudligini ta'kidlab o'tadilar.

4 slayd

Chet tili darslarini o'zlashtirishda sifat va samaradorlik muammolari

Sinfdag'i ba'zi o'quvchilarning darsga qiziqishining sustligi;

Nazariy bilimlarning amaliyotda kam qo'llanishi;

Berilgan materiallar yuzasidan kam topshiriqlar bajarilishi.

5 slayd

Men o'z ish amaliyotimda nutq o'stirishning quyidagi usullaridan foydalanaman.

Ular quyidagicha;

1.Har bir dars boshida kirish suhbatini o'tkazish usuli.Suhbat turli mavzularda bo'lishi mumkin, bunda ko'proq q'ol ko'tarmaydigan, indamas o'quvchilar suhbatga tortiladi. Suhbat davomida o'quvchilar nutqining yutug'i, kamchiligi aniqlanib, tahlil qilinadi.

6 slayd

Rasmlar asosida muhokama qilish va o'quvchilar ijodkorligini oshirish usuli

Har bir o'quvchining yoshiga , nutqiy ko'nikmalariga mos kartochkalardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Monitorda ko'rib turganingizdek, darslik majmualarda ham o'quvchi yoshlarimiz uchun yaxshi rasmlar tanlab olingan.

7 slayd

3.. Kichik-kichik matn tuzish va o'quvchilar bilan matn ustida ishlash usuli. Matn ustida ishlash o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga va og'zaki nutqini o'stirishga katta yordam beradi.. O'tilgan mavzuni so'rashda avvalgi usullardan voz kechib, birorta rasm tanlash, masalan, deraza oldida ochilib turgan gul, biron narsaga qarab bog'lanishli kichik matn tuzish. Bunda o'quvchilarga ko'proq badiiy tasvirdan foydalanishni maslahat beraman. Tuzilgan matnlar o'qitilib, kichik savollar bilan o'tilgan materiallar takrorlanadi.

8 slayd.

Eshitgan, ko'rganlari asosida guruhlarda suhbat o'tkazish usuli. Nutq ko'nikmalarini o'stirishda bu usul juda ham qo'l keladi. Majmuada keltirilgan rasm, matn, ko'tgazmali qurollari, audio topshiriqlari asosida guruhlarda mustahkamlovchi topshiriq sifatida foydalanishimiz mumkin.

Masalan, My school, English is fun, School uniform, Subjects at school.

9 slayd

Guvohi bo'lib turganingizdek, guruhlarda berilgan matn ustida ishlash va ularni qiyosiy o'rganish ham dars mazmunini yanada boyitadi.

10 slayd

O'quvchilarning ijodkorligini oshiruvchi teatrlashtirish usuli...

Bu usul yordamida o'quvchilarimiz matn va mavzu yuzasidan egallagan bilimlarni amaliy ko'rsatib berishadi. Bu usulning asosiy maqsadi, o'quvchilarning matn va mavzu yuzasidan olgan bilim, malaka hamda ko'nikmalarini yoritib berishdir.

11 slayd

Matn yoki rasm yuzasidan o'quvchilarga hujumli savollar berish. Bu usul yuqoridagi usullar ichida eng samaradorligi desam, adashmayman. Uning asosiy maqsadi- rasm yoki matn yuzasidan o'qituvchi o'quvchilarga mavzuga bog'lagan holda tinimsiz savollar beradi. O'quvchilar o'qituvchining bergen har bir savoliga javob berishi kerak. Eng asosiysi, o'quvchilar birin ketin tuzgan savollarga bergen javoblarini, ularda uchragan kamchiliklarni analiz sintez qila oladi. Usulni tugatish so'ngida barcha o'quvchilar berilgan topshiriq yuzasidan yetarlicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishadi.

#### 12 slayd

Xotira mashqi usuli ham eng samarali usullardan biridir. Unda bir soniyada ko'rsatib o'tilgan rasmlarga izoh berilishi hamda ularni mantiqiy bog'lash kerakligi talab qilinadi.

#### 13 slayd

Eng samarali usullardan biri eshitgan ( tinglab tushunishga oid) va ko'rgan narsalari ( darslikda berilgan rasmlar) asosida guruhlarda suhbat o'tkazish usulidir.

Maktablarimiz uchun yaqinda tajriba sinovlaridan o'tkazilgan "FLY HIGH -5" darslik majmuasi va unda berilgan rasmlar haqida biroz to'xtalib o'tmoqchiman. Bu tajriba sinovidan o'tgan darslik majmuasidan keeling, 5 bo'lim, 5 darsini etiboringizga havola etmoqchimiz. 1 ta , o'quvchilarning matn , matnning mazmuni, uninq maqsadi haqida tushuncha,ma'lumot berishimiz, ma'lumotni mustahkamlashda eshitgan va ko'rgan narsalar asosida guruhlarda suhbat, bahs, muzokara o'tkazib, matnni to'liq o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishamiz.

#### 14 slayd

Matn va rasm asosida hujumli savollar usuli eng muhim usullardan biri sanaladi. Uning muhimligining sababi, darslik majmuasida berilgan, rasm yoki matn yuzasidan o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga mavzuga bog'lagan holda tinimsiz savollar beradi.O'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan har bir savollarga javob berishlari eng asosiy vazifa qilib olinadi. Bu usulda darslarda doimo halaqtirish bergan yoki passiv o'quvchilar ham o'qituvchi savollaridan qochib qutila olmaydi. Chunki, bu usulda savollar sero, ular hammaga yetadi. Savollar berilishida o'qituvchi 1 yoki 2 darsarda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilimiga qarab savollar beradi. Bir necha darslardan keyin savolar biroz mutakkablashtiriladi. Savollarga javob berish jarayonida o'quvchilar o'tilgan mavzularni ham takrorlashi, nutqlarida uchragan kamchiliklarining o'qituvchi tomonidan to'g'ri tahlil qilib berilishi, bora –bora o'quvchilar ham savollarni analiz sintez qila boshlaydilar. Bu usulni tugatish so'ngida o'qituvchi o'quvchilardan butun bir rasm yoki matn yuzasidan berilgan barcha savollar yuzasidan o'zlari mustaqil matn tuzishlari, uni hikoya qilib berishliklari talab qilinadi. O'quvchilar darslk majmuasida berilgan rasm, matn yuzasidan, yetarlicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladilar.

Men ham, ish faoliyatimda bu usuldan samarali va ko'proq foydalanishga harakat qilaman. Bu usuldan foydalanish jarayonida , shunga amin bo'ldimki, o'quvchilarda muntazam ravishda tilga bo'lgan qiziqishning oshishi, o'tilgan mavzularning yaxshi mustahkamlanishi, savollarni to'g'ri tuzish va javob berish ko'nikmalarining paydo bo'lishiga, Bir birini hurmat qilishiga, o'quvchilarda

topshiriqlarni analiz - sintez qilish jarayonlarining shakllanishiga, eng asosiysi, O'quvchilarda chet tilining nutqiy ko'nikmalarining rivojlanishiga sabab bo'la oldi.

Masalan, bir rasmning o'ziga ko'plab savollar berish orqali bu rasmni o'quvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilishiga turtki bo'ladi.

Birgina, rasmdagi qizchaga oid savollar hujumi mana bu tariqada bo'lishi mumkin:

What can you see in the picture?

What is she?

How does she look like?

Is she a pupil?

Is she a pupil or a teacher?

Is she a good pupil or a greedy pupil?

What is her name?

Is her name Jane or Malika?

Are you sure that she is Jane?

How does she study?

Where does she study?

How well does she study?

Does she like her family?

How many people in her family?

What colour does she like?

How many days does she study at school?

What subjects does she study at school?

What is her favourite subject?

What is her hobby?

Now let's talk about her school. What can you tell us about her school?

Chet tili darslik majmularidan maqsadli foydalanish orqali o'quvchilarda chet tilining nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullarida matnning to'g'ri tanlanganligi katta ahamiyatga ega. Majmuadagi har bir ilova qilingan matnning o'z maqsadi mavjud.

Shu tariqa o'qituvchi o'quvchilarga hujumli savollar tuzib, O'quvchilardagi nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishi hamda mustahkamlashi mumkin. Eng avvalo, o'qituvchilar ham ijodkorlik, zamonaviy o'qituvchi bo'lish dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, nutq ko'nikmalarini shakllantiruvchi usullardan har doim, muntazam foydalanish kabi tushunchalar egalari bo'lishi talab qilinadi. Ana shundagina, biz yoshlarimizning kelajakda bilimli, aqli, zukko bo'lishlariga zamin yaratib bergen bo'lamiz. Shu o'rinda barcha ustozlarga ijodiy salohiyat va kuch quvvat sizga hamisha hamroh bo'lishini tilab qolaman.

**ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИННИГ 2017 ЙИЛ 6 АПРЕЛДАГИ “умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш түғрисида”ги**

**187-СОНЛИ ҚАРОРИ**

**“Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълим муассасалари учун умумтаълим фанларидан ўқув-методик мажмуаларнинг янги авлодини ишлаб чиқишига қўйиладиган умумий талаблар”**